

"MUSIQA TERAPIYASINING NAZARIY ASOSLARI TARIXIY RIVOJI VA  
INSON RUHIYATIGA TA'SIR MEXANIZMLARI"

Qurbonaliyeva Sohobaxon Xolmuhammad qizi <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti.

abdullayevabashoratxon31@gmail.com (+998942727558)

ORCID ID 0009-0004-8911-1467

MAQOLA  
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 12.01.2025

Revised: 13.01.2025

Accepted: 14.01.2025

KALIT SO'ZLAR:

musiqa terapiyasi,  
stress, ruhiy holat,  
salomatlik, tibbiyot,  
ta'lim.

Maqolada musiqa terapiyasining mohiyati va inson salomatligiga ta'siri o'rganilgan. Musiqa terapiyasining tarixiy rivoji, xususan, Forobiy va Ibn Sino kabi allomalarning bu boradagi hissasi tahlil qilingan. Musiqa stressni kamaytirish, ruhiy holatni yaxshilash, nafas olish va yurak urishini normallashtirishda samarali vosita ekani ilmiy ma'lumotlar asosida ko'rsatilgan. Musiqa terapiyasining bolalar, o'smirlar va kattalar salomatligini mustahkamlashda qo'llanilishi, shuningdek, uning ta'lim va tibbiyot sohalaridagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot musiqaning inson hayotida nafaqat estetik, balki terapevtik vosita sifatida tutgan o'rnini ochib beradi.

**KIRISH.** Hozirgi davrda musiqa insonning ruhiy holatini barqarorlashtirish, shaxsiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim vositalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qarorlar, xususan, "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'atni yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror (2020-yil 26-may, PQ-4749-son)<sup>48</sup> ijodiy sohalarini rivojlantirish va madaniy merosni saqlashga qaratilgan [1].

<sup>48</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'atni yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror, PQ-4749-son, 2020-yil 26-may.

Musiqqa terapiyasining pedagogik jihatdan dolzarbligi shundaki, u ta'lim-tarbiya jarayonini psixologik barqarorlik, ijodiy o'sish va o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash bilan boyitadi. Ayniqsa, maqom va xalq kuylarining o'quvchilarga ruhiy xotirjamlik va ijodiy ilhom berishi ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek Allomalarimiz qoldirgan asarlarda musiqqa terapiyasining o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda qanday qo'llash mumkin rkanligi ko'rsatilgan. Mazkur masalaning dolzarbligi davlatning madaniy-ma'rifiy siyosati va zamonaviy pedagogik yondashuvlar nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Shu sababdan musiqqa terapiyasining tarbiyaviy, ta'limiy va ruhiy sog'lomlashtirishdagi roli yanada chuqur o'rganishni talab qiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

#### 1. Abu Nasr Farobiy - "Al-Musiqqa al-Kabir"

Farobiy o'z asarida musiqqa va uning insonga bo'lgan ta'sirini ilmiy tarzda yoritgan. U musiqaning tabobatdagi roli va uning inson ruhiyatiga qanday ta'sir qilishi haqida yozgan. Farobiy maqomlar haqidagi qarashlari inson ruhiyatini va salomatligini yaxshilashga qaratilgan. Har bir maqomning turli vaqtlar va holatlarda qanday samarali ishlashini ko'rsatadi.<sup>49</sup>

#### Ibn Sino - "Javomi ilm-al musiqqa"

Ibn Sino musiqqa va uning inson ruhiyatiga ta'siri haqida keng qamrovli ilmiy yondashuvni taqdim etgan. U musiqqa nazariyasini tovushning fizik xususiyatlari orqali tushuntiradi va musiqaning inson salomatligi va ruhiyatiga bo'lgan ta'sirini ilmiy asosda izohlaydi. Ibn Sino musiqqa va ahloqni bog'lashni rad etib, uni alohida ilm sifatida ko'rgan.<sup>50</sup>

#### Al-Farabi - "Kitab al-Musiqqa al-Kabir"

Farobiy musiqaning inson ruhiyatiga ta'sirini, uning turli maqomlari va tovushlarining fiziologik va psixologik ta'sirini o'rganishga asoslangan. U musiqqa orqali insonning ruhiy holatini boshqarish va sog'liqni saqlash imkoniyatlarini ko'rsatadi.<sup>51</sup>

---

<sup>49</sup> Farobiy, A. N. (1984). Al-Musiqqa al-Kabir (The Great Book of Music). Tahrn: Institute for the Intellectual Development of Children and Young Adults.

<sup>50</sup> Ibn Sina, A. (1985). Javomi ilm-al musiqqa (The Compendium of the Science of Music). Baku: Azerbaijan National Academy of Sciences.

<sup>51</sup> Farobiy, A. N. (1998). Kitab al-Musiqqa al-Kabir (The Great Book of Music). Cairo: Al-Muqtadara Press.

**Johann Sebastian Bach - "Musical Offering"**

Baxning asarida musiqa va matematik simmetriya, tovushning izchil ritm va melodik tuzilishi orqali insonning ruhiyatiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Musiqaning terapevtik kuchi u orqali ilgarilab boradi, chunki Bachning asarlari insonga tinchlik va xotirjamlik tuyg'ularini beradi.<sup>52</sup>

**Oliver Sacks - "Musicophilia: Tales of Music and the Brain"**

Oliver Sacksning "Musicophilia" asarida musiqa va uning inson miyasiga bo'lgan ta'siri ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. U musiqaning odamning psixologik va neyrolojik holatlariga qanday ta'sir qilishini o'rganadi, bu esa musiqa terapiyasining psixologik asosi sifatida ishlatiladi.<sup>53</sup>

**Daniel J. Levitin - "This Is Your Brain on Music"**

Daniel Levitin asarida musiqa va uning inson miya va hissiyotlariga qanday ta'sir qilishi haqida ilmiy tahlil olib boradi. Levitin musiqa va neuromusical tadqiqotlar orqali musiqaning inson ongi va salomatligi bilan qanday bog'liqligini yoritadi. Bu asar musiqa terapiyasining ilmiy asosini kuchaytiradi.<sup>54</sup>

**Emil Kraepelin - "Psychiatric Studies"** Emil Kraepelin o'z asarida musiqa va uning psixoterapiya, ayniqsa psixiatriya kontekstida qanday ishlashini o'rganadi. Uning fikriga ko'ra, musiqa psixologik kasalliklarni davolashda samarali vosita bo'lib, uning ta'siri insonning ruhiy holatini yaxshilashga yordam beradi.<sup>55</sup>

Bugungi kunda Insonlar yer yuzidagi eng mukammal mavjudotlar ekanligi va ularning ruhiyati ham o'ziga hoslik va murakkabliklardan iborat ekanligi o'z isbotini topib kelmoqda. Lekin ba'zida o'zidagi hissiy kechinmalarni nazorat qilolmaydigan darajada o'zidirlar. Ya'ni Insoniyat dunyoga keladi va rivojlanishni boshlaydi, ulg'ayadi shu asnda u o'zligini anglashi va borliqni o'rganib chiqishi kundan kunga takkomilashib boraveradi. Lekin ayrim lahzalarda ongimiz hissiy kechinmalarimizni nazorat qila olmaydi va bu holat ko'pincha salbiy hisslarning to'planib borishi, stress, depressiya, va xattoki ruhiy kassaliklarga chalinish holatlarini ham keltirib chiqarishi mumkin. Ruhiyat bilan sodir

---

<sup>52</sup> Bach, J. S. (1747). Musical Offering. Leipzig: Bach Archive.

<sup>53</sup> Levitin, D. J. (2006). This Is Your Brain on Music. New York: Dutton.

<sup>54</sup> Levitin, D. J. (2006). This Is Your Brain on Music. New York: Dutton.

<sup>55</sup> Kraepelin, E. (1915). Psychiatric Studies. Leipzig: Barth Verlag.

bo'ladigan bu kasalliklarning eng samarali arzon va zararsiz davolash usuli bu musiqa orqali davolashdir. Ya'ni musiqa terapiyasidan foydalanish.

Shu o'rinda savol tug'uladi. Musiqa terapiyasi nima o'zi? "Musiqa terapiya" atamasi yunon-lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib "musiqa bilan davolash" degan ma'noni anglatadi. "Musiqa terapiya" tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjud. Olimlarning katta qismi musiqa terapiyasini psixoterapiyaning yordamchi vositasi, bemorlarni murakkab terapevtik usullardan foydalanishga maxsus tayyorlash vositasi deb bilishadi. Boshqa mualliflar esa musiqa terapiyasini quyidagicha belgilaydilar: □ Somatik va ruhiy kasalliklarga chalingan bolalar va kattalarni davolash, reabilitatsiya qilish, o'qitish va tarbiyalashda musiqa nazorati ostida foydalanish. Kasallik yoki ruhiy buzilishlarning fiziologik yoki psixologik jihatlarini davolash uchun musiqadan tizimli foydalanish. Ijodiy kuchlar va pedagogik-tarbiyaviy ishlarni optimallashtirish vositasi sifatida foydalanish. Musiqaning inson ruhiy va jismoniy holatiga sezilarli ta'sirini tasdiqlagan birinchi shaxs bu yunon olimi va faylasufi Pifagor bo'lgan. Yamblichning "Pifagor hayoti to'g'risida" nomli asaridan ko'rinib turibdiki, "Agarda kimdir chiroyli ritmlar va qo'shiqlarni tinglasa, unda bunday odam musiqiy ta'limni ohang va ritmlardan foydalangan holda, insoniy axloqi va ehtiroslarini davololay oladi va aqliy kuchlarning dastlabki uyg'unligi o'rnatiladi". Hindistonda musiqiy terapiya usullari keng qo'llanilgan bu Raga nazariyasiga mos keladi. Har bir raga ma'lum bir kayfiyatga chanbarchas bog'liqdir, musiqa odamning ruhiy holatidagi o'zgarishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning uchun depressiya va boshqa kasalliklarni davolash mumkindir. Hind shifokorlarining fikriga ko'ra. Musiqa terapiyasi Xitoyda ham ma'lum bo'lgan. Islomiy Sharq tibbiyotining donishmandi, yurtdoshimiz Avitsena ya'ni Abu Ali ibn Sino va Muallimi soniy ya'ni Abu Nasr farobiy o'zlarining "Tib qonunlari" va "Musiqa haqida katta kitob" ilmiy asarlarida musiqaning terapevtik vosita sifatida ta'siri haqida yozganlar. Xususan Abu Nasr Farobiy o'zining "Musiqa haqida katta kitob" ilmiy asarida Astronomiya va musiqaning o'zaro aloqasi haqidagi nazariyalarni ochiqlashga harakat qilgan. Shuningdek o'sha davrlardan oq Sharq madaniy xazinasini bo'lgan maqomlardan, insonlarni davolashda ham foydalanilganligi haqida ma'lumotlarni keltirgan. Ya'ni Abu Nasr Farobiy maqomlarning inson ruhiyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi va kunning qaysi qisimida qanday maqomlarni tinglash samarali ekanligini ilmiy sharhlab bergan. Bunga ko'ra:

"Rohaviy maqom"ni erta tongda tinglash tavsiya etiladi va bu maqom insonda abadiylik tuyg'usini rivojlantiradi.

“Rost maqomi” esa bemorlar uchun quvonch keltiradi. Va Albatta bu maqomni ertalab quyosh chiqqandan so’ng 50-40 daqiqa oldin va kechqurun quyosh botishidan 40-50 daqiqa oldinroq bo’lgan vaqtlarda tinglash yaxshiroq ta’sir ko’rsatadi.

“Isfahon maqomi” bemor insonlarga quvnoqlik va ishonch hissini beradi va uni quyosh botganda eshitish joizdir.

“Navo maqomi” shirinlik va zavq hissini beradi va bu maqom turi kechqurun eshitish uchun samarali topilgan.

“Xusayniy maqomi”- xotirjamlik tuyg’usini beradi va ertalab samarali hisoblanadi.

“Ushshoq maqomi” tushlik paytida foydalidir va inson ruhiyatiga ko’t arinkilik kayfiyatini beradi.

“Busalik maqomi” bemorlarga kuch baxsh etadi, kunduz kuni samarali ta’sirga ega.

“Zangula maqomi” - bemorga uyqini singdiradi va kechasi samaralidir. Bu nazariyalar orqali Abu Nasr Farobiy o’zining tabobat ilmidagi eng qadrli hisoblanuvchi merosi ya’ni maqomlarni musiqiy terapiyasining bir bo’lagi ekanligi haqidagi bilimlarini qoldirib ketgan. Uning bu ilmiy qarashlarini davom ettirgan holda Abu Ali Ibn Sino ham o’zining musiqa haqidagi qarashlarini “Javomi ilm-al musiqa” asarida aniqroq talqinda sharhlangan.”Muxtasar ilm-al musiqa”va “Donishnoma”asarlarining musiqaga oid qismlari esa o’sha asar asosida tuzilgan. Ibn Sino o’z musiqa nazariyasi asosi va ilm-u fan ta’rifini ko’proq tovushning fizik xususiyatlariga qarata tuzishga intildi va albatta bunga erishdi. Musiqani inson faoliyatining mahsuloti, aloqa vositasi deb asoslangan Ibn Sino estetikasi, O’rta asrlar musiqa tafakkurining eng ilg’or ko’rinishlaridan biri bo’lgan. Ibn Sino o’zining “Javomi ilm-al musiqa” asarida idealistik qarashlarni to’g’ridan-to’g’ri rad qilishdan boshlaydi: “Biz musiqa pardalarining munosabatini falaksiymolar va ruhning axloqiy xususiyatlariga qiyos qilishga e’tibor bermaymiz chunki, bu bir ilmni ikkinchisidan ajratib ololmaydiganlarning odatidir”. U musiqaning progressiv yo’nalishlarini qo’llab-quvvatlash va idealistik qarashlardan muhofaza qilishni O’rta asrlar sharoitida juda katta ilmiy matonat etgan. Shuni aytish joizki o’sha davrda musiqa sa’natidagi amaliyot va tabobat ilmidagi ko’plab tajribalar din ulamolarining qarshiliklari tufayli amalga oshirilmay qoladi. Lekin bunday to’sqinliklarga qaramay Abu Ali ibn Sino insonlarni davolashda birmuncha amaliyotlardan foydalanib o’zining tajribalari haqidagi ilmiy asarlarni qoldiradi. Tajribalarinig bir qismi musiqa terapiyasiga bag’ishlanadi. Bundan tashqari Ibn Sinoning ilmu-ta’rif nazariyasida ham musiqaning barcha kategoriyalari,tovushlardan to murakkab tuzilmlargacha ko’rib chiqiladi. Shuni aytish joizki Ibn Sino "tabiat ruhning takliflariga bo’ysunadi" deb hisoblagan,va shuningdek u ruhni musiqa bilan davolash taklifini ham

ilgari surgan. Uning asarlarida musiqa bir necha jihatlarida namoyon bo'ladi misol uchun: falsafiy, nazariy, psixologik, estetik tibbiy va'ni terapevtik. Yeg'ilgan bu uyg'un jihatlar insonni tarbiyalashga qaratilgan hayratlanarli darajadagi yaxlit tizimni tashkil qiladi. Ibn Sino bunday tartibdagi tarbiya yoshligidan boshlanishi kerak deb fikr yuritgan. Ruh va tananing nisbati masalasi Ibn Sino falsafasining markaziy qoidalaridan biridir. Buyuk tabib ularning uyg'unligi va bir-birini to'ldirish g'oyasini ilgari surdi. Uning fikriga binoan tana bu , ruhning uyi va uning faol harakatlanishi uchun vositadir. Binobarin, barkamol avlodni rivojlantirish uchun ikki tomonlama ta'lim zarur: jismoniy salomatlik uchun jismoniy mashqlar va ruhiy barkamollik uchun musiqa va boshqa san'at turlari bilan shug'ullanish kerak ekanligi haqidagi bilimlar ibn Sino nazariyasining asosiy negizi bo'lgan.

Ibn Sino musiqiy go'zallik haqida mukammal ta'limotni ilgari surib, musiqani hamohanglikning eng kamolga yetgan turi deb biladi. Ritm masalalariga Sharqning boshqa musiqa nazariyotchilari singari aruz badiiy tizim bilan bog'liq holda qaraydi. Tabib sifatida u musiqani muhim tibbiy vositalar jumlasiga kiritgan. Inson nutqiy ohanglarining rivojlanishi natijasida musiqa paydo bo'lganligi haqidagi nazariyasi hozirgi zamonaviy musiqa nazariyalariga mos keladi. O'zining barkamol shaxsni tarbiyalash g'oyasida musiqani asosiy vositalar sirasiga kiritgan. G'arb mamlakatlarida esa ko'plab tajribalar sinovdan o'tkazilgan. Musiqa terapiyasidan foydalanish misol tariqasida : Bir nechta ilmiy izlanishlarga ko'ra, Motsartning D - dur sonatasini tinglash bemorlarda epilepsiya xurujlari sonini kamaytirishga yordam beradi va bu ilm-u fanda „Motsart effekti“ deb yuritiladi. Biroq, ushbu tadqiqot natijalarining ishonchiligi unga qo'yilgan cheklovlar va keyingi tadqiqotlarda natijalarni takrorlay olmaslikka sabab bo'ldi. Ba'zi

shifokorlar musiqa mushaklarning bo'shashiga yordam beradi, ayniqsa tez yurish va yugurish paytida va semirib ketgan odamlarning yaxshi jismoniy holatini saqlab qolish uchun qo'shimcha rehabilitatsiya terapiyasi sifatida ishlatilishi mumkin deya maslahat berishadi. Bundan tashqari, musiqa kayfiyat va hissiyotlarga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, bu esa sport ruhini saqlashga imkon beradi va shu bilan fitnes yutuqlariga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi. Muayyan turdagi musiqa tinglash yurak urishini sekinlashtirishi va qon bosimini pasaytirishi mumkin. Tadqiqotchilar musiqa va sukunatning turli xil kombinatsiyalarini sinab ko'rishdi va ritmik va sokin kuylar qon oqimi va yurakka eng yaxshi ta'sir ko'rsatishini aniqladilar. Amaliyotchi musiqa terapevt-psixologlarning ta'kidlashicha, to'g'ri tanlangan kuylar, musiqiy asarlar, improvizatsiyalar xotira va ongsizlik bilan ishlash uchun qulay vositadir. Musiqa fikrlash va xotira jarayonlarini yaxshilaydi. Tovushlar assotsiativ tuzilmalarga o'zaro ta'sir qiladi, haqiqiy xotiralar va

tajribalarni yuzaga, onga “tortib oladi”. Beshikda yotgan chaqaloq ham ona allasini eshitib orom olib uxlaydi. Musiqa inson madaniyatida, uning rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Inson ongu tafakkuri o‘sishi, madaniyati, estetik didi shakllanishida musiqa san’ati, turli ohanglar jarangi muhim rol o‘ynaydi. Inson dunyoga kelganidayoq ona allasi ohangi ila musiqaga oshno bo‘ladi, undan rohatlanib, orom oladi. Musiqa butun hayot davomida — dam olish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayllar, tadbirlar va mehnat jarayonida insonga hamdam bo‘ladi. Musiqa inson madaniyatida va jamoaviy hayotda o‘ziga xos o‘ringa egadir. U dam olish va ko‘ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayllar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashqlari va mehnat jarayonida muayyan vazifalarni bajaradi. Shuning uchun Musiqa asarlari o‘z mazmuniga muvofiq holda bir nechta uslub, tur va janr guruhlariga ajratiladi. Alla, zikr, marsiya, sarbozcha, vals, marsh, messa kabi janrlar hayotdagi maishiy va boshqa sharoitlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ashula, dastgoh, cholg‘u kuy, maqom yo‘llari, konsert, miniatyura, romans va boshqalarda estetik ta’sir o‘tkazish vazifalari asosiy o‘rin tutadi. Musiqa ko‘pincha inson kayfiyatini o‘zida aks ettiradi. Shu bilan birga misol uchun, rulda haydayotgan kishiga eng yaxshi musiqa bo‘lib, elektron musiqa hisoblanadi, xomilador ayollarga esa olimlar klassik musiqani eshitishni tavsiya qilishadi, axir aynan shunaqa musiqa dunyoga keladigan bolakayning kelajakdagi musiqiy didini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bugungi kundagi psixologlarimizning fikriga ko‘ra musiqaviy asboblarni ijro etish musiqa terapiyasining bir qismidir. Ya’ni kaftlarda refleks zonalari mavjud bo‘lib, ularning massaji ko‘plab kasalliklarni davolashga yordam beradi. Psixologlarimiz tomonidan shunday g‘oyalar ilgari suriladi ya’ni "pianino chalish-bu sog'lomlashtirish texnikasi omboridir" Ushbu texnikaning muallifi motorli ko'nikmalar bilan bog'liq. Binobarin, nima bo'layotganini to'g'ri tushunish va atrofdagi dunyoga ijobiy ta'sir ko'rsatish istagi bilan har qanday musiqachi davolovchi bo'lishi mumkin.

### **XULOSA**

Musiqa va san’atning boshqa hilqatlari asrlar davomida turli tomonlama ta’sir kuchiga ega bo‘lgan. Falsafiy jihatidan musiqa orqali davolash usullari qadimiy o‘tmishiga ega bo‘lgan desak, Pedagogik jihatdan musiqa terapiyasi eng avallo yosh avlodni har tomonlama rivojlanib estetik did bilan shakllanishga ko‘maklashuvchi eng ajoyib vositadur.

Musiqa terapiyasi zamonaviy pedagogik jarayonlarda shaxsning rivojlanishi, ruhiy va psixologik barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, maqom va milliy

kuylar o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish, psixologik muvozanatni tiklash va ularni o'z madaniy ildizlariga yanada yaqinlashtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, musiqa terapiyasini o'quv jarayoniga tatbiq etish orqali nafaqat ta'lim sifati, balki o'quvchilarning madaniy va ruhiy kamoloti ham ta'minlanadi. Shu sababdan, bu sohani pedagogik va ilmiy nuqtai nazardan yana-da chuqur o'rganish va rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar:**

1. Farobiy, Abu Nasr. (1984). *Al-Musiqa al-Kabir (The Great Book of Music)*. Tahrin: Institute for the Intellectual Development of Children and Young Adults.
2. Ibn Sina, Abu Ali. (1985). *Javomi ilm-al musiqa (The Compendium of the Science of Music)*. Baku: Azerbaijan National Academy of Sciences.
3. Farobiy, Abu Nasr. (1998). *Kitab al-Musiqa al-Kabir (The Great Book of Music)*. Cairo: Al-Muqtadara Press.
4. Bach, Johann Sebastian. (1747). *Musical Offering*. Leipzig: Bach Archive.
5. Sacks, Oliver. (2007). *Musicophilia: Tales of Music and the Brain*. New York: Alfred A. Knopf.
6. Levitin, Daniel J. (2006). *This Is Your Brain on Music*. New York: Dutton.
7. Kraepelin, Emil. (1915). *Psychiatric Studies*. Leipzig: Barth Verlag.
8. Tame, D. (1984). *The Secret Power of Music: The Influence of Music on the Human Spirit*. Rochester, VT: Healing Arts Press.
9. Bruscia, K. E. (2014). *Defining Music Therapy (3rd ed.)*. Gilsum, NH: Barcelona Publishers.
10. Aigen, K. (2014). *Music Therapy Handbook*. New York: The Guilford Press.
11. Truax, B. (2012). *Acoustic Communication*. Westport, CT: Ablex Publishing.
12. Kemp, A. (2010). *Music and Emotion: Theory and Research*. New York: Oxford University Press.